

**ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA PRETSEDENT  
NOMLARNING QO'LLANILISHI**

*Topiljonova Namuna Muydinjon qizi  
Namangan viloyati Namangan shahar  
67-maktab o'qituvchisi  
Ilmiy rahbar: Sh. Abdurahmonov*

**Annotatsiya:** Maqolada pretsedent birliklar haqida ma'lumot va Abdulla Oripov she'riyatida pretsedent nomlarning ishlatalish o'rni va ularning vazifalari yoritilgan.

**Аннотация:** В статье представлены сведения о прецедентных единицах, месте употребления прецедентных имен и их функциях в поэзии Абдуллы Орипова.

**Abstract:** The article provides information about precedent units and the place of use of precedent names and their functions in Abdulla Oripov's poetry.

**Kalit so'zlar:** pretsedent birlik, pretcedent nom tushunchasi, miliy pretcedent birlik, universal pretcedent birlik.

**Ключевые слова:** прецедентная единица, прецедентное существительное, национальная прецедентная единица, универсальная прецедентная единица.

**Key words:** precedent unit, precedent noun concept, national precedent unit, universal precedent unit.

**Kalit so'zlar:** pretcedent birlik, pretcedent nom tushunchasi, miliy pretcedent birlik, universal pretcedent birlik.

So'nggi vaqtarda tilshunoslikda xalqlarning o'ziga xos madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, pretcedent nomlar madaniyatni til orqali o'rganishga imkon beradi. Pretcedent nomlar xalqlar madaniyatida alohida o'rin tutadi, ular milliy o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi.

Pretcedent nomlar deb, mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlarga aytildi. Masalan, Alpomish, Majnun, Suqrot, Hotam, G'irot kabilar kiradi.

Badiiy adabiyotda kishi va joy nomlarini ifodalovchi otlarning belgilar asosida yashirin ma'noda qo'llanishi keng kuzatilmada. Bu usul adabiyotshunoslikda asar qahramonining yashirin tuyg'ulari, shaxsiy sifatlari, qaharmonning emotsiyal munosabatini ifodalash vositasi o'rganilmoqda.

Pretcedentlik hodisasini ilk bor psixolingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya nazariaysi sohalarida tadqiq etilgan. Pretcedent birliklar til tizimini tadqiq etishning yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokultrologiyaning asosiy o'rganish

ob'ektlaridan biri hisoblanadi.

V.Maslovaning fikriga ko'ra, muayyan milatlarga yaxshi tanish bo'lgan matnlar yoki voqealar bilan bog'liq bo'lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar deyiladi. Masalan: Oblomov, Taras.

Pretsedent nomlar tarqalish doirasi va miqyosiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Milliy pretsedent birliklar.
2. Universal pretsedent birliklar.

Abdulla Oripovning "Bizning she'r" nomli she'rida:

Shoirni hech taniganmi hissiz diog'dor,  
*Muqimiyning avlodimiz kamtar va nocyor.*  
Lekin shoir so'zi bilan hamisha poydor,  
Aminxo'ja bu borada guvadir zinhor,  
Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.

nomli she'rida Muqimiyl nomi tarixiy shaxs sifatida pretsedent nomlar vazifasini bajarmoqda. Bu birliklar tarqalish doirasi va miqyosiga ko'ra miliy pretsedent birliklar hisoblanadi.

Shoirning "So'nngi urush" nomli she'rida Navoiy, Pushkin; Rim, Samarqand nomli pretsedent birliklar keltirilmoqda:

*Navoiy abasdир, Pushkin ham abas,*  
*Rim yo'q, Samarqand yo'q, dahshat alhazar!*  
Moziydan biror nom qolarmidi,bas,  
Keljakning o'zi bo'lmasa magar.

Abdulla Oripovning yuqoridagi she'rida ham miliy pretsedent nom, ham universal presedent nomlar ishtirok etgan. Milliy pretsedent birlikka: Navoiy, Samarqand kabi pretsedent nomlar kirsa, universal pretsedent nomlarga esa Pushkin, Rim so'zleri keltirib o'tilgan.

XX asrning oxiriga kelib she'riy matn mualliflarining pretsedent birliklarga, shu jumladan, pretsedent nomlarga qiziqishi ortdi. Pretsedent nomlarni asarlarda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Sahna asarlaridagi nomlar.
2. Muqaddas matnlardagi nomlar.
3. Adabiyotdagi qahramonlarning nomlari.
4. Tarixiy shaxslarning nomlari.
5. Mashhur yozuvchilarining nomlari.

Pretsedent birliklarni guruhanishini inobatga olib Abdulla Oripov she'riyatida ham bu turlardan namunalar ko'rishimiz mumkin.

Ko'z oldimdan kechar asrlar,  
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.

Sarson o‘tgan necha nasllar,  
Topolmasdan tug‘ilgan joyin.  
Amerika – sehrli diyor,  
Uxlar edi Kolumb ham hali,  
Dengiz orton yoritdi ilk bor,  
*Beruniyning aql mash’ali.*  
*Kolumbda* bor alamim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasidasida Beruniy, Kolumb kabi pretsedent birliklar tarixiy shaxslarning nomlarini bildiruvchi guruhga misol bo‘ladi.

Abdulla Oripovning yana bir she’rida Alisher Navoiy pretsedent nom vazifasini bajarib, mashhur yozuvchilarining nomlarini bildiruvchi guruhga misol bo‘ladi:

Nido tingla, bu kun, yurting tarafdan,  
Ey, yiroq *Hirot* maskan topgan er!  
Ogoh bo‘l, *Alisher*, sen ushbu gapdan:  
Har ikki nabirang biri – Alisher.

Bundan tashqari, Hirot nomi ham pretsedent nom vazifasini bajarib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida, pretsedent nomlarni shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan madaniyat, san’at, adabiyot, tarixiy shaxslar, muqaddas matnlarga oid mashhur birlklarga intermatn bo‘la oladi. Xususan, Abdulla Oripovning she‘rlarida bunga namunalar ko‘rdik

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Худойберганова Д. Матнинг антропосентрик тадқики. Узбекистон Республикаси “Фанлар” нашриети, Т.:2013. 87-б.
2. Орипов А. Танланган асарлар. Faafur Fulom nomidagi Adabiet va san'yat нашриети, Т.: - 2001.
3. [www.intereuroconf.com](http://www.intereuroconf.com)